

O‘ZBEK TILINING GERMANIYADA O‘RGANILISHI TARIXIGA DOIR

B.F.Xolmuxamedov

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Bu maqolada Germaniyada XX asr boshlaridan e’tiboran o‘zbek tili, uning tarixi hamda shevalari, amalga oshirilgan tadqiqotlar bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, ba’zi tadqiqotlarning mazmun va mundarijasiga doir tahlillar amalga oshirilgan. Jumladan, Karl Brokelmann, Karl Menges, Annemariye fon Gaben, Ingeborg Baldauf, Anjelika Landmann kabi olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan.

Kalit so‘z: Germaniya, O‘zbekiston, o‘zbek tili, turkologiya, turkiy tillar, nemis turkologiya maktabi.

Kirish.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va XX asr boshida o‘lkada milliy ozodlik harakatining boshlanishi hamda ma’rifatparvarlik oqimi – jadidchilikning paydo bo‘lishi Osiyoning qoq markazidagi qadimiy madaniyat va ma’rifat beshigiga yevropaliklarning diqqat-e’tiborini jalb qildi. Jumladan, Germaniyada bir necha asrlik tarixga ega turkologiya fanining bir tarmog‘i sifatida o‘zbek tili, adabiyoti, folklori va madaniyatiga doir tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

O‘zbeklar, ularning tili hamda madaniyati haqidagi tadqiqotlar Germaniyada keyingi yuz yillikda aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universitetining institutlarida jumladan, O‘rta Osiyo tadqiqotlari instituti, Markaziy Osiyo seminarida (Humboldt-Universitat zu Berlin Seminar fur Mittelasienswissenschaft; Humboldt-Universitat zu Berlin Zentral Asian Seminar), Bamberg, Berlin Frei, Frankfurt, Gyttingen, Gamburg, Maynz, Myunxen universitetlari qoshidagi turkologiya tadqiqotlari institutlarida olib borildi va olib borilmoqda. Bu zamon tizimi ichida Germaniya ikki jahon urushi, parchalanish va birlashish jarayonlarini boshdan kechirganiga qaramay, bu mamlakatdagi turkologiyaga doir tadqiqotlar, jumladan, o‘zbek tili va madaniyatiga doir ilmiy izlanishlar susaymadi, balki tadqiqotlarning ilmiy saviyasi va ko‘lami oshib bordi.[1]

Tadqiqotning material va metodlari.

Karl Brokelmann, Karl Menges, Annemariye fon Gaben, Ingeborg Baldauf, Anjelika Landmann kabi olimlarning turkologiya sohasida qilgan tadqiqotlari, qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil qilingan.

Asosiy qism.

Germaniyada o‘zbek tili tarixi va til yoyilgan geografiyaga doir lingvistik tadqiqotlarning boshlanishi mashhur turkolog Karl Brokelmannning (Carl Brockelmann (1868-1956) nomi bilan bog‘liq. Xususan, uning Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari haqidagi tadqiqotlari o‘z davri uchun muhim ilmiy kuzatishlar edi va unda Koshg‘ariyning bu asarida izohlangan so‘zlarning XI asrdagi barcha turkiy xalq va qabilalar uchun umumiy lug‘at boyligi ekanligi xususidagi xulosalar keyinchalik barcha turkologlar tarafidan qabul qilindi. Olimning «Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillar so‘z boyligi haqidagi

qarashlari» («Mahmud al-Kaschgaris Darstellung des turkischen Verbalbaus», KSz, XVIII, 1919, s. 29-49), «Mahmud Koshg'ariy XI asrdagi turkiy qabilalar va ularning tillari haqida» («Mahmud al-Kasghari uber die Sprachen und die Stamme der Turken im 11. Jahrhundert», KCsA, I, 1921, s. 26-40) kabi asarlari haligacha o'z ilmiy qiymatini yo'qotmadi.

O'z ilmiy hayotining boshida qadimgi uyg'ur yodnomalarini o'qish, transkripsiyalash va tarjima qilish bilan shug'ullangan va mashhur uyg'urshunos W.Bang bilan birgalikda 1929-1934-yillar davomida «Turkische Turfan-Texte» («Turfondan topilgan turkcha matnlar») seriyasida Turfon va boshqa uyg'ur shaharlaridan topilgan buddaviylik matnlarini tadqiq etgan Annamariya fon Gaben (Annemaria von Gabain (1901-1993), Ikkinchi jahon urushi paytida o'zbek tili masalalari bilan shug'ullanadi, asirga tushgan o'zbek askarlar bilan uchrashib, ularning og'zidan matnlar yozib oladi, bu matnlarni tahlil qiladi, izlanishlarning yakuni sifatida 1945-yilda nemis turkologlari orasidan birinchi bo'lib «O'zbek tili grammatikasi»ni yozib nashr ettiradi («Ozbekische Grammatik», Leipzig-Wien, 1945. Leiden, 1954, VIII, 429 s.) Bu asarning ikkinchi, to'ldirilgan nashri 1954-yilda Leydenda chop etilgan.

Annamariya fon Gabenning turkolog sifatida shakllanishi, o'zbek tilini o'rganishi va tilimizning ilmiy grammatikasini yozishi o'zining qiziq tarixiga ega. Ikkinchi jahon urushidan oldin doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan, uyg'ur matnlarining tadqiqotchisi sifatida hamda «Qadimgi turkiy tilning grammatikasi» mavzusidagi tayanch asari bilan mashhur bo'lgan, aslzoda oilaning farzandi Annamariya fon Gaben aynan urush yillarida o'zbek tili bilan qiziqib qolishi va qisqa muddatda asir askarlardan bu tilni o'rganib, uning grammatikasini yarata olishi uning naqadar g'ayratli va bilimdon olima ekanligidan darak beradi*. Ammo uning katta mehr va g'ayrat bilan yaratgan «O'zbek tili grammatikasi» asaridan faqat 20 donasini mualliflik nusxasi sifatida unga berdilar, xolos. 1945-yilda Germaniya poytaxtini egallagan sho'ro okkupatsion ma'murlari bu kitobda «Sovet Ittifoqiga nisbatan dushmanona fikrlar mavjudligi» tufayli qolgan tirajni tarqatishni man qiladilar. 1945-46-yillarda och-yupun yashagan mashhur turkolog 1946-yilda Germaniya g'arbiga ko'chib o'tadi, uzoq yillar davomida Hamburg universitetida ishlaydi, bu yerda turkologiya maktabini yaratishga ulguradi. 1993-yilda 92 yoshida olamdan o'tgan zahmatkash olimaning butun hayoti bo'yicha uyg'ur va o'zbek tillariga bo'lgan muhabbati susaymadi va butun dunyodagi uyg'urshunos va o'zbekshunos turkologlarning «Maryam opasi» bo'lib yashadi.[2]

A.fon Gabenning «O'zbek tili grammatikasi»da eng teran ishlangan bo'limlardan biri «Fonetika» qismi ekanligini ta'kidlab o'tish kerak. «O'zbek adabiy tilida, xuddi Turkiston shahri shevasida bo'lgani kabi 9 ta unli tovush mavjud, – deb yozadi olima va ularni quyidagicha ta'riflab beradi: **a, ə** (keng **a** unlisi), **e** (o'rta keng, til o'rta **e** unlisi), **i, ɪ** (til orqa **ɪ** unlisi), **o, ɵ, u, y (ü)**». Shuningdek, u to'qqiz unlili tilda singarmonizm (lab va tanglay garmoniyasi)

* Ikkinchi jahon urushi davrida nemislarga asir tushgan ziyoli o'zbek askarlardan Mo'min, Ravshan, Ah-jon (dotsent) va Turkiston Legionining yetakchisi Vali Qayumxon fon Gabenning til materiali to'plagan shaxslari bo'lgan (Qarang: Gabain 1945; s. VI.)

mavjud ekanligi haqida haqli xulosa chiqaradi.[3] Afsuski, 1934, 1940 va 1993, 1995-yilgi alfavit islohotlarida tilimizning ana shu xususiyati e'tiborga olinmadi va natijada, o'zbek tilidagi singarmonizm asta-sekin yo'qolishga yuz tutmoqda.

Prof. Temur Kojao'gli (Temur Xo'ja) Annamariya fon Gabenning «O'zbek tili grammatikasi»da tilimizning fonetik tizimi uning tabiatiga mos ravishda ta'riflanganini qayd etib o'tadi va buning asosida olima tayangan o'zbekcha ilmiy manbalar, xususan, ulug' tilshunos-turkolog Abdurauf Fitratning «O'zbek tili qoidalari. Sarf» (Abdurauf Fitrat, «Sarf: Ozbek tili qaideleri to'g'risida bir t'crib» (Birinci Kitap). Semerkand-Ta'skent: Ozbekistan D'vl't N'şriyatı, 1930 (6-ıncı basma) asari va 1928-34-yillarda O'zbekistonda tilimizning singarmonistik tabiatini o'zida aks ettirgan lotin-o'zbek yozuvida nashr etilgan ilmiy va badiiy asarlar yotganini qayd etib o'tadi.[4]

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoning barcha yetakchi mamlakatlarida bo'lgani kabi Germaniyada ham o'zbek tilini amaliy o'rganish va o'qitish harakatlari kuchaydi. Sovet blokiga kirgan Germaniya Demokratik Respublikasidagi turkologiyaning yirik vakili sifatida o'zbek, qozoq, qirg'iz adabiyotlari va madaniyatiga doir salmoqli asarlar yaratgan Zigrid Kleynmixel (1938-yilda tug'ilgan) 1995-yilda «O'zbek tilining amaliy kursi. Leksika va grammatika» (Kleinmichel, Sigrid. Übungsbuch Usbekisch: Lexik und Grammatik, Turkologie und Turkeikunde 3, Harrassowitz, Wiesbaden, 1995, 246 s. (A. Shumaniyazov bilan hammualliflikda) kitobini e'lon qildi. Bu kitob bir qancha vaqt Germaniya universitetlarining asosiy darsligi vazifasini bajargani ma'lum.

2016-yilda Zigrid Klaynmixel faoliyat ko'rsatayotgan aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universiteti Markaziy Osiyo seminari olimlari o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun yana bir qulaylik yaratdilar – olima ham ishtirok etgan «Boshlovchilar uchun o'zbek tili» (Uzbekisch für Anfänger. Online-Audiokurs) onlayn audio kursi yaratildi va internet tizimiga qo'yildi.[5] Zigrid Klaynmixel, Ayfer Durdu, Barno Aripova, Nargiza Rasulova, Iftixor Shomurodov, Ingeborg Baldauflardan iborat mualliflar jamoasi yaratgan bu audiokurs o'zbek tilining boshlang'ich kursini olayotgan talabalar yoki o'zbek tilini mustaqil o'rganayotgan kishilarga to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Germaniyada va aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universitetida o'zbek tili, adabiyoti, madaniyati bo'yicha ilmiy izlanishlar va o'zbek tilining o'qitilishida prof. Ingeborg Baldauf xonimning alohida o'rni bor. Ingeborg Baldauf 1956-yilda tug'ilgan. U 1974-1980-yillarda Vena universitetida turkologiya, islomshunoslik va arabshunoslik bo'yicha o'qigan. 1977-1978-yillar davomida Afg'onistonda, afg'on o'zbeklari xalq qo'shiqlarini yig'ib, 1980-yilda dissertatsiya himoya qilgan.

1991-1993-yillarda «Sovet turklari va musulmon Rusiyasida yozuvning o'zgarishi va yozuv islohoti (1850-1937), siyosiy-madaniy, tarixiy-g'oyaviy 17 taraqqiyotning simptomi» (Schriftreform und Schriftwechsel bei den muslimischen Russland-und Sowjettürken: (1850-1937); ein Symptom ideengeschichtlicher und kulturpolitischer Entwicklungen. Budapest, 1993, 782 pp.) mavzusidagi keng ko'lamli tadqiqotini amalga oshirgan. Bu kitobda Rossiya imperiyasi va sho'rolar

ittifoqidagi turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbeklarning XX asr boshida amalga oshirgan yozuv islohotlarining fenomenini har taraflama tahlil qilgan.

1995-yilda aka-uka Humboldtlar nomidagi Berlin universitetida Markaziy Osiyo Seminari rahbari lavozimida ish boshlaydi va 2012-yilda bu lavozimdan iste'fo etguniga qadar o'zbek tilining o'rganilishi va o'qitilishi sohasida juda katta ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodi, O'rta Osiyoda jadidchilik harakati, Eron madaniyati, Markaziy Osiyoni madaniy sovetlashtirish, usmonli turk adabiyoti, ma'rifatparvarlik davri o'zbek adabiyoti, qadimshunoslik, musulmonlar dunyosidagi islohotchilik va modernizm, Shimoliy Afg'onistonda ziyoratchilik, tolibonlar davrida Afg'oniston o'zbeklari, qadimgi qo'lyozmalarning izohli lug'at-glossariysi kabi mavzularda ilmiy faoliyat olib bordi [6].

Professor Baldaufning ilmiy izlanishlari nafaqat o'zbekistonlik o'zbeklar, balki shimoliy Afg'oniston va Markaziy Osiyoning barcha millat va elatlarining adabiyoti, tili, tarixi va urf-odatlarini to'g'risidadir. U «Shimoliy Afg'onistonning o'zbek xalq qo'shiqlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Professor Ingeborg Baldauf boshchiligida Osiyo tillari va madaniyati mavzusida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarni olib bormoqda. Jumladan, «Shimoliy Afg'oniston maqollari» (Sprichwörter aus Nordafghanistan), «Mahmudxo'ja Behbudiy va O'rta Osiyoda islom dini» (Mahmud Xudja Behbudi und die islamische Aufklärung in Mittelasien), «O'zbek tili» (Die uzbekische Sprache), «Turkiy xalqlarning xalq topishmoqlari», «XX asr boshida o'zbek adabiyoti» (Uzbekische Literatur des frühen 20. Jahrhunderts) va boshqa tadqiqot loyihalari mavjud. Universitetda Ingeborg Baldauf xonim boshchiligida quyidagi yo'nalishlarda «Markaziy Osiyo seminari» (Zentralasien-Seminar) nomli seminar tashkil etilgan: bakalavriyat, magistratura va doktorantura ta'limi (Bachelor, Master-und Promotionsstudien) fors, mo'g'ul, pushtu, tojik, tibet va o'zbek tillarida til o'rganish kurslari (Sprachkurse für Dari-Persisch, Mongolisch, Pashto, Tadschikisch, Tibetisch und Uzbekisch-teils auch als Intensivkurse).

Bundan tashqari universitetda quyidagi yo'nalishlarda o'zbek tili va adabiyotini o'rganish imkoniyati mavjud: Bachelor «Regionalstudien Asien-Afrika» (Schwerpunkt Zentralasien) Masterstudiengang «Zentralasien-Studien-Central Asian Studies» Regionalwissenschaftliches Master-Studium «Mittelasien-Kaukasien» Promotion in «Zentralasien-Studien». Quyidagi yo'nalishlarda esa «Zentralasien-Seminar» doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: madaniyat tarixi va ijtimoiy siyosat mavzusida (über kulturgeschichtliche und gesellschaftspolitische Themen) til va adabiyot mavzusida (über Sprachen und Literaturen) etnografiya va diniy fanlar sohasida (über Themen aus Ethnologie und Religionswissenschaft) Markaziy Osiyoning yangi tarixi (über die neuere Geschichte Zentralasiens) va boshqalar. 20 ta kichik nashrlardan iborat «Anor» seriyasi Markaziy Osiyoda islom dini, tarixi va madaniyatiga oid nemis tilidagi asosiy manbalardan biridir. Hozirga qadar «Anor» seriyasida 19 ta kitob nashr etilgan.[7]

Prof. Baldauf xonimning 2002, 2003, 2007, 2008, 2010-yillarda butun Germaniyadan o'zbekcha o'rganishga ishtiyoqli universitet talabalarini to'plab, Germaniya akademik hamkorlik agentligining (DAAD) moddiy yordami bilan

O'zbekistonga, Samarqandga olib kelgani va bu yerda Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutidagi o'zbek tili mutaxassislari bilan «O'zbek tili yoz kurslari» tashkil etgani, bu kurslar uchun maxsus materiallar tayyorlagani ma'lum. Intensiv o'zbekcha o'rganayotganlar uchun yordam sifatida bu qo'llanma ham internetdagi ma'lum saytlarda e'lon qilingan[8].

Xulosa.

Germaniyada o'zbek tilining o'rganilishi va o'qitilishining qariyb 100 yillik tarixi bor. Ammo tilimizni keng miqyosda o'qitish va o'rganish Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin yuz berdi. Bugungi kunda o'zbek tili Germaniya Federativ Respublikasining 10 dan ziyod universitetlarida o'qitiladi. Aka-uka Humboldlar nomidagi universitet, Berlin Frei va Mainz universitetlari mamlakatdagi yetakchi o'zbek tili va madaniyatini o'rganuvchi markazlardandir. Professorlar Ingeborg Baldauf, Zigrid Kleynmixel, Anjelika Landman o'zbek tilini o'rganish va o'qitishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Ularning xizmatlari natijasi o'laroq Germaniyada bir nechta o'zbek tilini o'rganish ilmiy maktablari yaratilgan.

Adabiyotlar

1. Gül, Bulent. Almanyada Turkoloji Calışmaları (Tarihi Gelişim, Turkologlar, Dergiler) // Turkbilig, 2006/11: 56-117 ><http://www.turkbilig.com/pdf/200611-262.pdf> (February, 2017)
2. Ölmez, Mehmet (1993). «Annemarie von Gabain». *Türk Dilleri Araştırmaları*: 289-292
3. Annemarie von Gabain, Ozbekische Grammatik. Mit bibliographie, Lesestücken und Worterverzeichnis. 1945: Otto Harrassowitz, 1945, s. 20.
4. Kocaoğlu, Timur. Türkbilim (Türkoloji) de Özbekçenin ünlü sesleri ile büyük ünlü uyumu sorunu üzerine //Zeynep Korkmaz Armağanı/ Türk Dil Kurumu yayınları, 2017 (e'lon qilinmoqda)
5. Uzbekisch für Anfänger. Online-Audiokurs <http://www.twirpx.com/file/1996342/> (Febriaru, 2017)
6. Berdialiev Bahodir. O'zbek xalq rivoyatlarini nemis tiliga tarjima qilishning lingvostilistik muammolari > library. ziyonet.uz/ru book/ download/ 32949 (February, 2017)
7. Bachelor «Regionalstudien Asien-Afrika» <https://www.2.huberlin.de/zentralasien=anor> (February, 2017)
8. Ingeborg Baldauf. www.twirpx.com/files/languages/uzbek (February, 2017)

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ГЕРМАНИИ

Аннотация. В данной статье приведены материалы по истории изучения и преподавания узбекского языка в Германии с начала XX века и до наших дней. А также, анализированы содержание и сущность научных

трудов отдельных немецких ученых как Карл Брокелман, Карл Менгес, Аннемарие фон Габэн, Ингеборг Балдауф, Анжелика Ландман.

Ключевые слова: Германия, Узбекистан, узбекский язык, тюркология, тюркские языки, немецкая тюркологическая школа

HISTORY OF UZBEK LANGUAGE STUDIES IN GERMANY

Abstract. This article contains materials on the history of studying and teaching the Uzbek language in Germany since the beginning of the 20th century to the present day. Also, the content and essence of the scientific works of individual German scientists as Karl Brokelmann, Karl Menges, Annemarie von Gabain, Ingeborg Baldauf, Angelika Landmann was analyzed.

Keywords: Germany, Uzbekistan, uzbek language, turkology, turkic languages, German Turkic school